



## DINIY EKSTREMIZM VA TERRORIZMGA QARSHI YOSHLAR ONGIDA MAFKURAVIY IMMUNITETNI SHAKLLANTIRISH SHARTLARI

**Alimova Ozodaxon ilhomjon qizi**

Andijon Davlat Universiteti

Tarix fakulteti Tarix yo'nalishi

306 - guruh talabasi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.6308864>

### MAQOLA TARIXI

Qabul qilindi: 10-Fevral 2022

Ma'qullandi: 15 - Fevral 2022

Chop etildi: 20 - Fevral 2022

### KALIT SO'ZLAR

*Terror, diniy ekstrimizm, mafkuraviy immunitet, aqidaparastlik, dunyoqarash, diniy bag'rikenglik, diniy e'tiqod, xavfsizlik, barqarorlik*

### ANNOTATSIYA

*Ushbu maqolada bugungi kunda butun dunyoga xavf solayotgan diniy ekstremistik va terroristik tashkilotlarning zamon va makonga moslashib shakl shamoyilini o'zgartirib yanada xavfli tus olayotgan tahlikali davrda yoshlar ongida buzg'unchi g'oyalarga qarshi tura oladigan mafkuraviy immunitetni shakllantirishning dolzarbligi va ahamiyati mushohada qilingan.*

### KIRISH:

Islomda tinchlik iymondan keyin eng buyuk ne'mat sifatida e'tirif qilinadi. Dunyoda tinchlik bo'lmas ekan insoniyat hech bir maqsadini, mo'ljalini amalga oshirolmaydi. Hozirgi kunda o'z dunyoviy g'arazli maqsadlarini din niqobi ostida amalga oshirishga harakat qilayotgan kuchlar shu qadar keng ko'lam va xilma-xil ko'rinish kasb etmoqdaki, insoniyatga bo'lgan tajovuzi va xavfi ortib bormoqda. Statistik ma'lumotlarga ko'ra dunyoda 500 ga yaqin terorchilik tashkilotlar faoliyat ko'rsatmoqda. Shundan yuzdan ortig'i zamonaviy qurollangan. Hozirgi kunda mustaqil davlatlar tomonidan amalga oshirilayotgan o'zaro g'amxo'rlik va diniy

bag'rikenglik asosida imzolangan shartnomalar insonlar o'rtasida ijobiy qarashlar shakllantirmoqda. Bu esa yaqin birodarchilik munosabatlari va o'zaro tinchlik o'rnatishga qaratilib insonlarni salbiy kuchlarga qarshi birga kurashishlari uchun zamin yaratmoqda. <sup>1</sup>Diniy ekstremistik harakatlar Hizb ut tahrir, Nurchilar, Al-Qoida, Musulmon birodarlari, ISHID, Tablig'chilar tashkilotlari o'z maqsadlariga erishishda yoshlarni keng qamrovda jalb qilish, ularning ongini va qalbini egallashga qaratilgan g'oyalar, turli usul va vositalardan foydalanmoqda.

<sup>1</sup> Safarova N. Terrorizm manbalari maqsadi va globallashuv jarayoni. T. Fan. 2006. 34-b.



Birinchi prezidentimiz ta'бири bilan aytganda g'oyaga qarshi g'oya mafkuraga qarshi mafkura bilan kurashmog'imiz lozim. Mafkuraviy immunitetni shakllantirish, milliy g'oya va mafkurasi asosida yoshlar ongida keng dunyoqarash va e'tiqodini, mustaqil fikrlash layoqatini to'g'ri shakllantrish dolzarb vazifa sifatida qaralmog'i lozim.

Prizdentimiz I. A. Karimov "Maqsadimiz- erkin shaxsni tarbiyalash"- deb bu borada har tomonlama mustaqil, o'zining va millatning qadr qimmatini teran idrok etuvchi shaxsiy fikrlarini sobit turib himoya qila oladigan yosh avlodni voyaga yetkazishni nazarda tutgan edilar.

#### **ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA:**

Hozirgi kunda yoshlarimizning asosiy vaqtini, e'tiborini o'g'rilayotgan ijtimoiy tarmoqlar global muommoga aylandi desak mubolag'a qilmaymiz.<sup>2</sup>Yoshlarimizning ongini buzg'unchi g'oyalarga og'dirishni bosh maqsad qilib olgan ekstrimistik, terroristik tashkilotlar va guruhlar tomonidan tashkil qilingan ijtimoiy tarmoqlardagi faoliyatni cheklash va tugatish maqsadida Adliya vazirligi O'zbekiston Respublikasi Oliy Sudning 2019-yil 12-martdagi qaroriga ko'ra ekstrimistik ruhda deb topilgan sahifalar va kanallar nomlari ro'yxati e'lon qilina boshlandi.<sup>3</sup> O'zbekiston Respublikasining

2018- yil 30- iyuldagi "Ekstrimizimga qarshi kurashish" to'g'risdagi qonuning 14-11- moddasiga muvofiq quyidagilar ekstrimistik ruhda ekanligi e'lon qilindi: "Abu Sallox darsliklari, Jannat oshiq'lari, Shom ovozi Tavxid va Jixod, Islam Abu Khalil, Polvon Novqatlik, Soxib Maxmudov, Farruxbek Abdullayev, Mamarahimov Abduraxim Mirkomilovich, Muxojir Polvon, Abu Aisha, Turkiston, Xurriyat info, Najot , Al Va'y, Usul Fiqh, Mustalaxul hadis, Darslardan qisqa lavhalar, Fiqh ahkomlari, Tavxid darsi, Qiyomatdan oldingi fitnalar, Savol va javob, Foida va qoidalar, Tafzir darslari, Islomni buzuvchi amallar darslari, Namoz va Benamozga taluqli masalalar, Ayollar darslari silsilasi, Aqiyda darslari, Silsilaviy darslar va mulohazalar, Muhum darslar, Aqiydatul vositiya, Mustamxul hadis, Al Fatx, Talabalar uchun darslar kabilardir.

Yosh avlodning diniy ekstrimistik va terroristik tashkilotlarning faoliyatiga aralashmasliklari va ularni targ'ib etmasligi maqsadida<sup>4</sup>O'zbekiston Respublikasining Jinoyat Kodeksi 155-moddasida terrorism mohiyati, 155(1)-moddasida tayyorlanayotgan yoki sodir etilgan terorchilik harakatlari t'og'risdagi ma'lumotlar va faktlarni xabar qilmaslik,<sup>5</sup>155(2)-terorchilik faoliyatni amalga oshirish maqsadida o'quvdan o'tish, chiqish yoki harakatlanish, 155(3)- terorrizmni

<sup>2</sup> Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 31.07.2018-y., 03/18/489/1593-son; *Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-son.*

<sup>3</sup> 11-moddaning ikkinchi qismi O'zbekiston Respublikasining 2021-yil 21-apreldagi O'RQ-683-sonli *Qonuni tahririda* — *Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-son.*

<sup>4</sup> (155-модда биринчи қисмининг диспозицияси Ўзбекистон Республикасининг 2016 йил 25 апрелдаги ЎРҚ-405-сонли *Қонуни таҳририда* — ЎР ҚХТ, 2016 й., 17-сон, 173-модда)

<sup>5</sup> (155<sup>2</sup>-модда биринчи қисмининг санкцияси Ўзбекистон Республикасининг 2019 йил 3 декабрдаги ЎРҚ-586-сонли *Қонуни таҳририда* — Қонун ҳужжатлари маълумотлари миллий базаси, 04.12.2019 й., 03/19/586/4106-сон)



moliyalashtirish, 6156- Milliy, irqiy, etnik yoki diniy adovat qo'zg'atish, usbu moddalarning barchasi diniy ekstrimistik va terroristik tashkilotlar faoliyatiga to'siqnlik qilish uchun hamda yosh avlodning o'z kelajagini barbot qilmasligi davlat va jamiyat xayotini xavf ostida qoldirmasligi uchun huquqiy asos hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasining terroristik tashkilotlar safiga qo'shilib qolgan yoshlar bilan suhbat o'tkazilganda ularning ko'pchiligi moddiy ehtiyoj sabab chet el davlatlarida ishlayotgan immigrantlar ekanligi va aksar hollarda boy oilaning farzandlari ekanligi aniqlangan. Diniy ekstremistik va terroristik tashkilotlar ularni yagona islom xalifali davlati asosida birlashish maqsadida ekanligi va islom shariat qonunlari asosidagi huquqiy davlat tuzish maqsadida harakat qilishlari hamda birlashishi kerakligi haqida ularga audio video va o'zlari tomondan chop etilgan kitoblarni jo'natib ularning ongiga tasir o'tkazganligi haqida malumot beradi. Adashganligini anglagan guruh safidan chiqmoqchi bo'lganlarni oila azolarini o'ldirishlarini tahdid qilib ularni o'z safida qoldirganlar.

#### **MUHOKAMA:**

Yoshlarimiz millatimiz, xalqimiz va ertangi istiqbolimiz tayanchi hisoblanadi. Yoshlarimizning qobiliyatlari va iste'dodlarini ruyobga chiqarish, ularga munosib hayot tarzini berish maqsadida davlatimiz tomonidan keng imkoniyatlar va samarali islohatlar amalga oshirilmoqda.

Ammo yengil hayot kechirishga o'rganib qolgan, yuksak bir maqsadni oldiga qo'ymagan, o'z ona vataniga, xalqiga nisbatan daxldorlik hissini tuymayotgan yoshlarimizning borligi bu bizning fojeamizdir. Negaki bu tarbiya jarayonida yo'l qo'ygan jiddiy xatolarimiz mahsuli va hosilasi hisoblanadi. E'tiborsizlik, loqaydlik tarbiyada faqat biryuqlama harakatlanishimiz kutulmaganda salbiy jixatini namoyon qiladi. Bu jarayonni xitoyliklar bambuk daraxtiga qiyoslashgan. Bambuk ekilgach 4 yilgacha popukchalari yer ostida rivojlanadi. Nimjon ko'chat bo'y ko'rsatib turadi. Ammo 5-yilga kelib bo'yi 25 metr ga cho'ziladi. Tarbiyadagi nuqsonlarimiz ham bir kun kelib bambuk daraxtidek bo'y ko'rsatganida ota-onalarimiz qayerda xato qildim deb afsus nadomat chekishadi. Ammo tarbiyani ortga surib bo'lmasligi bu to'xtovsiz davom etadigan jarayon ekanligi haqida xulosa qilishmaydi. Yoshlarimizni ekstremizm to'riga, changaliga tushib qolishdan saqlash uchun avvalo nima qilishimiz kerak degan haqli savol tug'iladi. Ogoh bo'lishimiz ularni bolaligidan sabrli bo'lishga, mustaqil fikr yuritishga o'rgatishimiz lozim.

Din niqobidagi ekstremizm tahdidi quyidagilardir:

- Aqidaparastlikni yoshlar ongiga yoyish orqali islohatchi davlatga ishonchni yo'qqa chiqarishga urinish;

6 156-модда биринчи қисмининг санкцияси  
Ўзбекистон Республикасининг 2019 йил 3  
декабрдаги ЎРҚ-586-сонли Қонуни тахририда —

Қонун ҳужжатлари маълумотлари миллий  
базаси, 04.12.2019 й., 03/19/586/4106-сон)



- Soxta va haqiqiy dindorlik belgilari bo'yicha qarama-qarshiliklar keltirib chiqarish;
- G'arbga "islomlashtirilgan" sharqda esa aksincha "dinsiz" daxriy shaklida ko'rsatib O'zbekistonning xalqaro obro'siga putur yetkazish va hokazolar.

Xalqaro terrorizm bir davlat hududi doirasidan tashqariga chiqadigan terrorizm bo'lib odamlarni behuda halok bo'lishiga olib keluvchi, davlatlarning diplomatik faoliyatni buzuvchi xalqaro miqyodagi ijtimoiy xafli harakatlar yig'indisidir. <sup>7</sup>Ma'lumot o'rnida aytish keraki 1968-1980 yillar davomida ekstrimistik va terroristik tashkilotlar tomonida 6700 ta terorchilik amaliyoti sodir etilgan. Natijada 3668 kishi xalok bo'lib 7474 ta kishi turlicha tan jaroxatlari olganlar, 2001- yilning 11-sentyabir voqealari 3000 kishni umriga zomin bo'ldi.

#### **NATIJA:**

Zo'ravonlika tayangan ekstremizim hamda terrorizmning oldini olish va unga qarshi kurashishni dolzarb muammolari yosh avlodni buzg'unchi g'oyalar ta'siridan himoyalash bo'yicha siyosiy xuquqiy, ijtimoiy va tashkiliy profilaktika vositalarini yanada takomillashtirishni taqozo qilmoqda.

<sup>8</sup>Ma'lumki O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasining 72- sessiyasidagi nutqida, "Bizning asosiy

vazifamiz - yoshlarning o'z salohiyatini namoyon qilishi uchun zarur sharoitlar yaratish, zo'ravonlik g'oyasi "Virusi" tarqalishni oldini olishdur" deya takidlab o'tdilar.

Shu ma'noda davlatimiz rahbari tomonidan mamlakatlarga BMTning yoshlar huquqlari to'g'risidagi xalqaro konvensiyani ishlab chiqish xamda BMT Bosh Assambleyasining ma'rifat va diniy bag'rikenglik deb nomlangan maxsus rezolyutsiyasni qabul qilish taklifini kiritdi. O'zbekiston barchani e'tiborini musulmon olami uchun muxum yo'nalish "Ma'rifatli islom " g'oyasiga qaratdilar.

#### **XULOSA:**

Bugungi kunda shiddat bilan rivojlanib borayotgan davrda bunday radikal kuchlarga qarshi kurashmoq lozim. Har bir diniy ekstremizm va terrorizm faqat zo'ravonlik va tahdidlarga asoslangan bo'lib, ular hech qachon jamiyat rivojiga ijobiy tasir ko'rsatmaydi. Ularga qarshi ayovsiz, tizimli va birgalikda kurash olib borish lozim

Yoshlar ongida sog'lom dunyoqarashni shakllantirish, sog'lom mafkura egasi qilish va ularni o'zlari mustaqil to'g'ri yo'lni tanlay oladigan shaxs sifatida tarbiyalash vazifasi har doimgidan ham dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Oilalarimizdagi ma'naviy muhitning

<sup>7</sup> Karimov I.A. O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlikga tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari. -T.:O'zbekiston, 1997

<sup>8</sup> O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 19-sentabr kuni Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasining 72-sessiyasida nutqi <https://president.uz/oz/lists/view/1063>



sog'lomligi, atrofimizdagi insonlar hatti-harakatlariga, ularda bo'layotgan o'zgarishlarga e'tiborli bo'lish barchamiz uchun eng asosiy masala bo'lishi lozim.

Shunday ekan bugun barchamiz nafaqat o'zimizga balki atrofdagi yosh avlodga etiborli, ularga talabchan bo'lsak, ularni komil inson sifatida tarbiyalash g'oyasi asosida birlashtirsak hech qanday xavf-xatar bizga rahna sola olmaydi. Shu sababdan yoshlar ongida kuchli mafkuraviy immunitetni shakllantrish asosiy vazifamiz ekanligini bilishimiz kerak. Buyuk

bobokalonimiz Imom al-Buxoriy aytganlaridek dunyoda "Ilmdan boshqa najot yo'q".

Mamlakatimiz kelajagi va ravnaqi uchun jamiyatimizning har bir azosi sidqidildan tinchlik va barqarorligimizga rahna soluvchi kuchlarga qarshi befarq va loqayd bo'lmasdan hammamiz birgalikda kurashmog'imiz lozim.

### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Karimov. O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xafsizlikga tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari. T: O'zbekiston. 1997.
2. Sh. M. Mirziyoyev "Ijtimoiy barqarorlikni taminlash, muqaddas dinimizning sofligini asrash davr talabi" mavzusdagi anjuman nutqi.
3. Dinshunoslik asoslari. T: Toshkent Islom. Universiteti. 2013.
4. [WWW.lex.uz](http://WWW.lex.uz). O'zbekiston Respublikasi Jinoyat Kodeksi.
5. [WWW.lex.uz](http://WWW.lex.uz). O'zbekiston Respublikasi Ekstremizmga qarshi kurash to'g'risidagi qonun 2018 yil.
6. [WWW.lex.uz](http://WWW.lex.uz). Xalqaro terorizmga qarshi kurash sohasidagi xamkorlik to'g'risidagi qonun 2005.